

30-AVGUST, 2024-YIL

INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'RGATUVCHI USTOZLARNING KASBIY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Abdig'aniyeva Nilufar Husan qizi

O'qituvchi-tadqiqotchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13325066>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili ustozlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik sharoitlar, ilmiy asoslangan metodlar, ustozlar faoliyatida kasbiy rivojlanishi uchun mavjud bo'lgan muammolar haqida ilmiy izlanish natijalari keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogic sharoit, doimiy kasbiy rivojlanish, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, akademik majburiyat, o'z-o'ziga yo'naltirilgan ta'lim, TESOL.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF TEACHERS TEACHING
ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

Abstract. This article brings the results of scientific research on the pedagogical conditions necessary for the development of professional competencies of English teachers, scientifically based methods, problems available for professional development in the activities of teachers.

Keywords: education, pedagogical conditions, continuing professional development, competence, professional competence, academic commitment, Self-Directed Education, TESOL.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье будут представлены результаты научных исследований о педагогических условиях, научно обоснованных методах, необходимых для развития профессиональных компетенций преподавателей английского языка, проблемах, имеющихся в профессиональной деятельности преподавателей.

Ключевые слова: образование, педагогические условия, непрерывное профессиональное развитие, компетентность, профессиональная компетентность, академическая приверженность, самоориентированное обучение, TESOL.

KIRISH

Bugungi kunda jamiki ta'limda faoliyat ko'rsatayotgan ustoz va murabbiylar o'z ustida tinimsiz ishlashi, davomiy ravishda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirib borishi davr talabiga aylanib ulgurganini va, albatta, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatuvchi ustozlarga ham bu holat

30-AVGUST, 2024-YIL

istisno emasligini ta'limda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar, talabalar, yuqori tashkilot vakillari va ta'limga oid qonun loyihalarini yaratuvchilarning deyarli barchasi ta'kidlashadi.

Bundan tashqari, yaqin o'n yillik ichida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatuvchi ustozlarning davomiy malakasini oshirishga butun dunyo bo'ylab qiziqish kuchaydi, deyish mumkin. Shunga qaramay, Diaz-Maggioli o'zining "Teacher-centered professional development" maqolasida ko'pchilik xorijiy til ustozlari malaka oshirish dasturlari va shunga o'xshash faoliyatlarni ta'lim tashkilotlari tomonidan xar hil muammosi bor ustozlarga bitta umumiy yechim beradigan, bu muammolarni hal qilish uchun ustozlarning haqiqiy mashaqqatlarini yetarlicha anglay olmaydigan "ekspert" larni taklif qilish orqali yechim topishga harakat qiladigan faoliyat deb tushunishini aytib o'tgan. Fraydmen va Flipps esa:

"Yuqoridagidek malaka oshirish faoliyatlarida malakasini oshirgan murabbiylarning deyarli birortasi ham bu kurslarda amalga oshirilayotgan faoliyat va dasturlarning o'zlari uchun nechog'lik foydali ekanligi haqida to'liq ma'lumotga ega emas" deb qo'shimcha qiladi. Eslatib o'tilgan holatlar sababli ta'lim sohasi vakillari davomiy malaka oshirish dasturlarini o'zlarining faoliyatlariga nomuvofiq, vaqtlarini behuda sarflash, faqat yuqori tashkilotlar tomonidan belgilangan vazifalarga mos keladi, o'zlariga esa umuman manfaat bermaydi, deb hisoblay boshlashdi.

Bu dolzarb masalalar ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatuvchi ustozlarga borib taqalganda yanada kuchaymoqda, chunki bu yo'nalish bo'yicha haddan tashqari ko'p takliflar va dasturlar mavjudki, ulardan munosibini, eng to'g'ri keladigan variantini yoki bir necha variantlardan eng "qaymoq"li joylarini tanlab olish kerak. Zero, qandaydir yangi dastur yoki loyiha taqdim etilayotganda lingvo-madaniy, psixiko-etnik jihatlar, albatta, inobatga olinishi lozim.

DAVOMIY KASBIY RIVOJLANISH: Adabiyotlarga nazar

Kasbiy rivojlanish' atamasi ko'p yillar davomida ta'lim doiralarida ko'plab munozaralarni keltirib chiqardi va uning aniq ma'nosi haqida ba'zi-bir kelishmovchiliklar mavjud va bu munozaralarning aksariyati 'rivojlanish' nimani tashkil qiladi va o'qituvchilar undan nimani olishlari mumkinligi haqida edi. Natijada 'kasbiy rivojlanish' atamasini har kim har xil tushunadigan bo'lib qoldi. Xususan, izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatuvchi o'qituvchilar kasbiy rivojlanishni besh xil usulda kontseptualizatsiya qilishlarini ta'kidladilar: 1) maktabga asoslangan ta'lim; 2) akademik majburiyat; 3) maktab muhitidan tashqarida professional izlanish; 4) hukumat sxemasi; 5) o'z-o'ziga yo'naltirilgan izlanish.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar kasbiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, hamma ham bundan foydalanmayotganligini ta'kidlashadi. Shu

30-AVGUST, 2024-YIL

o'rinda kasbiy rivojlanish dasturlari haqida Bryant, Vaughn, LinanThompson, Ugel, Hamff, Hougen, Yumrularninf umumiy fikrlari o'rinlidir "Garchi TESOL (ingliz tilini boshqa tilda so'zlovchilarga o'rgatish) mazmunidagi davomiy kasbiy rivojlantirish bo'yicha samarali tadqiqotlarning miqdori u qadar ko'p bo'lmasa ham, TESOL ustozlari mavjud tadqiqotlardagi amaliy ahamiyatga molik yondashuvlarni ko'proq qadrlashlarini aytishadi". Keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shunday xulosa qilishimiz mumkin:

1)ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitadigan ustozlarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar mavjud emas;

2)kasbiy rivojlanish uchun mo'ljallangan harakatlar hozirgacha o'zining samarasi biz kutgandek bo'lib chiqmadi;

3)ingliz tili o'qituvchilari ko'proq amaliy ahamiyatga molik dastur va loyihalarni qadrlashadi.

TADQIQOT METODI VA JARAYONI

Dasturning ushbu qismi tadqiqotning o'qituvchilar guruhiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. 4ta umum-ta'lim maktablaridan jami 51ta ustozlar bevosita ishtirok etdi.

Respondentlarning tegishli tajribalarini keng o'rganish, batafsil va kommunikativ tushunchalarni rivojlantirish uchun chuqur intervyular o'tkazildi. Ushbu yarim tuzilgan intervyular qo'shimcha so'rovlar va tushuntirishlarga imkon berdi, javoblarning chuqurligi va sifatini oshirdi.

Barcha intervyular yozib olindi va keyinchalik to'liq tahlil qilish uchun so'zma-so'z ko'chirildi. Bundan tashqari, ishtirokchi bo'lmagan kuzatuvlarda 8ta o'qituvchi ishtirok etdi

Tajriba-sinov o'tkazilishidan oldin

№	Maktablar	O'qituvchilar soni	qoniqarli	yaxshi	A'lo
1	Termiz, 13-maktab	12	6	3	3
2	Termiz, 3 - maktab	13	6	4	3
3	Termiz, 26-maktab	11	4	4	3
4	Termiz, 9-maktab	15	7	5	3
	Jami	51	23	16	12

Agar foiz hisobida berilsa, quyidagi ko'rinishda bo'ladi

Tajriba-sinovdan oldingi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi

**Termiz, № 13, 3, 26, 9-
maktablar, umumiy 51ta ishtirokchi**




Yuqoridagi ma'lumotlarga inobatga olib biz samarali natijalarga erishishni umid qilib o'zimizning tajriba-sinovimizni boshladik. Izlanishlar natijalari ustozlarning tajriba-sinovdan oldingi, davomidagi va undan keyingi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarining darajasiga asoslanib yozib chiqildi.

Tajriba-sinovdan keyingi ustozlarning kasbiy rivojlanishi

Maktab	O'qituvchi lar soni	qoniqarli	yaxshi	a'lo
Termiz, 13-maktab	12	2	4	6
Termiz, 3 - maktab	13	2	4	7
Termiz, 26- maktab	11	2	3	6
Termiz, 9- maktab	15	2	6	7
Jami	51	8	17	26

Grafik ko'rinishi

**Termiz, № 13, 3, 26, 9- maktab, umumiy
ustozlar soni 51**



XULOSA

Umuman olganda, TESOL dasturlari orqali yoki boshqa o'qituvchilar o'rtasida o'zaro do'stona ta'lim jamoalarini yaratish eng yaxshi amaliyotlar, resurslar va innovatsion o'qitish usullarini almashish imkonini beradi. TESOL o'qitish mutaxassislari orasida tengdoshlarning kuzatuvlari va teskari aloqa mexanizmlarini kiritish pedagogik yondashuvlarni kuchaytiradi.

REFERENCES

1. Jalolov J.J., Mahkamova G.T. Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – T.: Fan va texnologiya, 2015. -328.
2. Баскаков Н.А., Абдуазизов А.А., Содиқов А.С. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 188
3. Қулматов Б.Г. Инглиз тилини инновацион технологиялар ёрдамида ўқитишда CEFR мезонларидан фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш; Дисс...пед.фан. (PhD). -Тошкент: 2018.-186.
4. Юсупова М.А. Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларини ўқув жараёнида лойиҳа технологиясидан фойдаланишга ўргатиш тизими; Дисс...пед.фан. (PhD). - Тошкент: 2021. -178
5. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. -Тошкент: Ўзбекистон ёшлар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти. 2006.
6. Боймуротов Н. Раҳбар психологияси. - Т., Янги аср авлоди. 2007.-328.
7. Ҳошимов Ў. Ёкубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси. –Тошкент: Шарқ, 2003.-167
8. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлиари (факультетлари) талабалари учун дарслик. -Тошкент: Ўқитувчи, 2012.-43
9. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т.: Тош. Давлат илмий нашриёти. 2002. - 468.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луҳати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Иккинчи жилд. Е – М. Давлат илмий нашриёти. –Т.: Давлат илмий нашриёти. 2006. –396
11. Brindley, S. (2005). English, research, and professionalism. Informit, 143, 20–26. <https://search.informit.org/doi/epdf/10.3316/aeipt.145591>
12. Hilferty, F. (2008). Theorising teacher professionalism as an enacted discourse of power. British Journal of Sociology of Education, 29(2), 161–173.
13. Rido, A. (2020). Why they act the way they do?: Pedagogical practices of experienced vocational English language teachers in Indonesia. International Journal of Language Education,

30-AVGUST, 2024-YIL

14. (1), 24–37. <https://doi.org/10.26858/ijole.v4i2.9935> 4. Yusuf, F. N., & Novita, O. E. (2020). EFL teachers' perceived language proficiency and teaching effectiveness. Indonesian Journal of Applied Linguistics, 9(3), 580–588. <https://doi.org/10.17509/ijal.v9i3.23208>



MODERN SCIENCE
& RESEARCH